



RELIGIOUS ADMINISTRATION OF MUSLIMS OF CENTRAL ASIA AND KAZAKHSTAN: MODERN APPROACHES

Nuriddin Sharifiy

PhD student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: abbosshahin@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, Kazakhstan, Muslims, spiritual administration, history, contemporary activity.

Received: 01.06.25

Accepted: 03.06.25

Published: 05.06.25

Abstract: The article provides a scholarly analysis of the historical roots, structure, and contemporary activities of the Spiritual Administration of Muslims of Central Asia and Kazakhstan. It examines the role and significance of regional religious governance based on recent historical research.

O'RTA OSIYO VA QOZOG'ISTON MUSULMONLARI DINIY BOSHQARMASI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Nuriddin Sharifiy

tayanch doktorant

O'zbekiston Milliy universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: abbosshahin@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Qozog'iston, musulmonlar, diniy boshqarma, tarix, zamonaviy faoliyat.

Annotatsiya: Maqolada O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasining tarixiy ildizlari, tuzilishi va zamonaviy faoliyati ilmiy tahlil qilinadi. So'nggi tarixiy tadqiqotlar asosida ko'rib chiqiladi.

РЕЛИГИОЗНОЕ УПРАВЛЕНИЕ МУСУЛЬМАН СРЕДНЕЙ АЗИИ И КАЗАХСТАНА: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ

Нуриддин Шарифи

поддержка докторанта

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: abbosshahin@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Средняя Азия, Казахстан, мусульмане, духовное управление, история, современная деятельность.

Аннотация: В статье проводится научный анализ исторических корней, структуры и современной деятельности Духовного управления мусульман Средней Азии и Казахстана. Рассматривается роль и значение регионального религиозного управления на основе последних исторических исследований.

O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi nafaqat O'zbekiston balki Markaziy Osiyo diniy hayotida muhim o'rin tutgan yirik tashkilotlardan biri hisoblanadi. So'nggi tarixiy tadqiqotlar bu tashkilotning tashkil etilishi va rivojlanishi mintaqadagi musulmon jamoatchiligining diniy va ijtimoiy ehtiyojlariga moslashishga xizmat qilganligi, roli, faoliyati hamda mintaqaviy siyosat bilan bog'liq o'ziga xos jihatlarni aniq ko'rsatib beradi. Bu idora tashkil etilishidan to parchalanishigacha diniy va siyosiy jihatdan muhim rol o'ynagan.

O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi(SADUM) 1943-yil 31-iyulda Toshkent shahrida tashkil etilgan. Ushbu tashkilot Markaziy Osiyoning beshta respublikalarini, ya'ni O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonni qamrab olgan. Uning birinchi muftiysi etib Eshon Boboxon ibn Abdumajidxon saylanadi va boshqaruvni tashkkil etish vazifasi yuklatilgan. Muftiy qurultoy orqali saylangan va birinchi qurultoyda 160 nafar islom ulamolari ishtirok etishga muvaffaq bo'lishgan. SADUM islom diniy faoliyatini nazorat qilish va boshqarishni asosiy maqsad qilib olgan edi. Sovet hukumati SADUM orqali masjidlar faoliyatini nazorat qilish, diniy ta'limotni boshqarish va islom diniy an'analarini muvofiqlashtirishni amalga oshirgan.

Mazkur tashkilotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lgan:

- Diniy nazorat va tartibga solish: bunda asosan qonuniy diniy amaliyotlarga ruxsat berish, ya'ni masjidlar, diniy marosimlarni davlat ro'yhatidan o'tkazish va imomlarni tayinlash, masjid va madrasalarning faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- Diniy ta'limni markazlashtirish: diniy ta'limni nazorat qilib bu orqali faqatgina ro'yhatdan o'tgan talabalarga ruxsat berish, madrasalar va boshqa diniy muassasalarda islom ta'limini tashkil qiladi va nazorat qiladi shuningdek, tasdiqlangan diniy qo'llanma va Qur'on tarjimalari chop etish;

- Tashqi siyosatda Islom diplomatiyasi: tinchlikparvar islom imijini targ'ib qilish, arab mamlakatlariga delegatsiyalar yuborish, arab davlatlarini qo'llab-quvvatlash, mahalliy va xalqaro darajada diniy muloqotni rivojlantirishga hissa qo'shadi;

- Diniy amaliyotlarni cheklash: haj qilish uchun faqat SADUM tanlab olganlarni yuborish, jamoat diniy marosimlariga faqat ro'yhatdan o'tganlarni yuborish.

SADUM quyidagi yo'llar bilan moliyalashtirilgan:

- Davlat subsidiyalari – Yillik byudjetning 60%.
- Xayriyalar – Faqat rasmiy ruxsat etilgan mablag‘lar (masjidlardagi saxiyalar qutisi).
- Xalqaro hamkorlik – Arab davlatlaridan kelgan mablag‘lar[1].

SADUM tashkil etilganidan so‘ng, islom ta‘limoti va madaniyatini rivojlantirishga katta e‘tibor berildi. Mir Arab madrasasi o‘quv dargohi sifatida rasman faoliyat ko‘rsata boshladi. Buxorodagi Bahouddin Naqshband, Samarqanddagi Shohi Zinda, Dushanbedagi Xoja Ya‘qub Charxiy, Toshkentdagi Imom Qaffol Shoshiy kabi ziyoratgohlar ochildi. Viloyatlar markazlarida yirik jome masjidlarining ishga tushirildi. Bir qator islomiy osori-atiqalarni ta‘mirlandi, bundan tashqari, boshqa ko‘plab xayrli ishlar bevosita bu tashkilot rahbarligida amalga oshirildi. Shuningdek 1974-yilda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi tashabbusi bilan jumhuriyatimizda butun islom dunyosi vakillari ishtirokida Imom al-Buxoriyning 1200 yillik yubileyi nishonlandi. Uning shoh asarlari hisoblanmish “Al-Jome’ as-sahih” va “Al-adab al-mufrad” kitoblari Toshkentda qaytadan nashr qilinishi al-Buxoriy merosini o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Toshkentdagi diniy oliy ma‘hadning Imom al-Buxoriy nomi bilan atalishi bundan o‘n ikki asr muqaddam ilm-fan yo‘lida beqiyos katta xizmat qilgan buyuk olimga chuqur hurmat-etiborning ramzi bo‘ldi.

SADUM tashkil etilganidan so‘ng, uning diniy nazorat faoliyati Sovet Ittifoqining diniy siyosati bilan mos ravishda amalga oshirildi. Muftiy boshchiligidagi SADUM, har bir respublikada qozi tayinlab, ularning faoliyatini nazorat qildi. Qozilar o‘z hududlaridagi masjidlar, imomlar va muazzinlarning faoliyatini boshqarib, fatvo berish, diniy marosimlarni o‘tkazish va islom diniy an‘analarini muvofiqlashtirish vazifalarini bajardilar. SADUMning markaziy idorasi Toshkentda joylashgan bo‘lib, u yerda Qurultoy va Ulamo Kengashi faoliyat ko‘rsatgan. Bu organlar orqali diniy masalalar muhokama qilinib, qarorlar qabul qilingan.

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi, asosan, Sovet davrining so‘nggi yillarida va mustaqillikdan keyingi davrda shakllandi. Uning tashkiloti Sovet hokimiyatining diniy siyosatiga, keyinchalik esa yangi mustaqil davlatlarning diniy va siyosiy talablarga javob berishga qaratilgan edi[2]. 1990-yillardan boshlab, diniy boshqarma mintaqada musulmon jamoalarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish va Islom dinining qonuniy faoliyatini tartibga solish vazifalarini oldiga qo‘ydi[3].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi mintaqaviy diniy va ijtimoiy hayotda beqiyos ahamiyatga ega. Tarixiy jarayonlarni va zamonaviy siyosiy kontekstni hisobga olgan holda, u nafaqat diniy faoliyatni tartibga soladi, balki mintaqada diniy tinchlik va barqarorlikni saqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. So‘nggi tarixiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, boshqarma mintaqaning din siyosati va ijtimoiy hayotidagi murakkab jarayonlarga moslashishda muvaffaqiyatli strategiyalarni ishlab chiqqan. Bu

esa O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlarining diniy mustaqilligini ta'minlash va xalqaro maydonda diniy madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Boshqarma faoliyati hozirgi kunda ham dunyo musulmonlari orasida mintaqaning diniy imidjini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akhmedov, T. "Religion and Politics in Central Asia" Central Asian Studies Journal, 2022.
2. Mamatov, R. "The Islamic Revival in Post-Soviet Kazakhstan" Eurasian Review, 2021.
3. Karimov, S. "Diniy Boshqaruv va Jamiyat: O'rta Osiyo Misolida" Tashkent, 2023.
4. Bekmuratova, L. "Islam in Central Asia: Historical Perspectives" Astana University Press, 2020.
5. Saidov, J. "Diniy Barqarorlik va Siyosat" Samarkand, 2024.
6. Nurbekova, A. "Religious Governance and Social Cohesion" International Journal of Islamic Studies, 2023.
7. Yusupov, M. "Islom va Milliy Identitet" Almaty, 2022.
8. Tasar E. "Soviet and Muslim", Oxford University Press, 2017.